

ZILZILAVIY HUDDUDLARDA LYOSSLI ZAMINNI ZICHLASH USULLARI

Berdimurodov Abdiqayum Eshnazarovich - Erkin tadqiqotchi PhD

Toshkent arxitektura va qurilish universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Eshnazarova Aziza Abdiqayum qizi - MSAT-1 guruh talabasi

Toshkent Davlat Transport Universiteti Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Zilzilaviy hududlarda zaminning lyossli gruntlarini zichlash usullari, poydevorning asosiy o'lchamlari, gruntning hisobiy qarshiligiga javob bermagan taqdirda, ularning asosiy o'lchamlari poydevorni kengaytirish, qo'yilish chuqurligini oshirish yo'llarini taklif qilamiz. Biroq, yana boshqa yo'li ham bor: poydevor o'lchamlarini oshirish o'rniغا bo'sh gruntni biror qurilish tadbir choralarini qo'llab uning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish va mustahkam grunt bilan almashtirish ham mumkin. Zilzilaviy hududlarda yog'och qoziq yordamida zichlash usuli lyosssimon gruntlarni zichlashda ishlataladi.

Kalit so'zlar: Zaminning lyossli gruntlari, sun'iy grunt, bo'sh grunt, shibalash, sun'iy qotirish, gruntlarni qotirish, yog'och qoziq, lyosssimon gruntlar, sementlash, to'kma gruntlar, gilli zarralar, elektrokimyoviy, zilzila xavfi, agregatlar.

Kirish qismi. Seysmologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar zilzila tabiatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda zilzila darakchilarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini aniqlashga, zilzila o'chog'i mexanizmlari va parametrlari bo'yicha seysmik to'lqinlarning tarqalishi va ularning geologik muhitdagi xususiyatlarini o'rganishga, turli darajadagi seysmik faol yer yoriqlarida zilzilalarning hosil bo'lish o'choqlarining joylashishidagi o'rnni aniqlashga, seysmik xavfni mintaqaviy o'zgarishini va seysmik tebranishlarni yerning yuza qismidagi lyossli grunt sharoitiga qarab o'zgarishini va masofa bo'ylab so'nishini hamda hududlarning turli darajadagi seysmik xatarini baholashga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydag'i PF-144-son Farmoniga 1-ilova 3-bob. O'zbekiston Respublikasi aholisni va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. 1§, 2§.

Inshootlarga seysmik ta'sirlar lyossli gruntning tebranishi orqali o'tadi va bu jarayon inshootlarning grunt bilan o'zaro ta'siri hamda boshqa bir qator o'ziga xosliklari bilan xarakterlanadi. Zilzilaning intensivligi zilzila o'chog'idan chiqqan energiya miqdoriga, muhitning tuzilishiga va lyossli grunt sharoitiga, muhitning elastiklik xossasiga, inshootning dinamik xossalari (xususiy tebranish davri, zichligi, va boshqalar)ga bog'liqdir.

Asosiy qism. Zilzilaviy hududlarda lyossli gruntlarni sun'iy zichlash usullarining hammasi 3 guruhga bo'linadi:

- a) bo'sh gruntlarni ancha mustahkam gruntlar bilan almashtirish;
- b) lyossli gruntlarni shibbalash (zichlash);
- v) lyossli gruntni sun'iy qotirish;

Zilzilaviy hududlarda bo'sh gruntlarni almashtirish, bo'sh gruntlarga poydevor qurishda uning tag yuzasi ostidagi bo'sh grunt olib tashlanib, o'rtacha va yirik donli qum to'ldiriladi. Qum to'shama quyidagi usul bilan to'ldiriladi: 20 sm qalinlikda qum to'shalib, suv sepilgach, maxsus gurzilar yoki titratkichlar yordamida shibbalanadi. Lyossli gruntlarni zichlash usullari bo'sh lyossli gruntlarni zichlash ustki qatlamni va chuqur qatlamni zichlashga bo'linadi. Dumalab harakat qiladigan mexanizmlar bilan amalgalash oshiriladi. Bir o'tishda 15-20 sm chuqurlikkacha shibbalanadi. Bu usul bilan 60 sm gacha shibbalash mumkin.

Fuqaro, jamoat va sanoat binolari poydevorlarining lyossli gruntini tig'izlashda eng ko'p qo'llaniladigan usul chuqur qatlamni zichlash usulidir. Bu usulda og'irlik 1-3 tonna va undan og'ir bo'lgan temirbeton yoki metall quyma gurzilar o'zi yurar kran yordamida 4-5 m yuqoriga ko'tarib bir yerga 8-10 marta urib lyossli grunt zichlanadi. Zichlash bilan bo'sh to'kish, g'ovak qum va qattiq siqiluvchan loyli hamda lyossimon gruntlar zichlanadi. Bu vaqtida siqiluvchan qumli gruntning namlik darajasi $S \geq 0,7$ dan kam bo'lmasligi va loyli gruntlarning namligi esa, yoyilish chegarasidan $2\div3\%$ oshiq bo'lmasligi kerak. Zichlash natijasida 1,8-2,0 m chuqurlikkacha grunt zichlashishi mumkin. Zichlangan lyossimon gruntlar zichlangan chuqurlikkacha o'zining o'ta cho'kish xossasini yo'qotadi. Lyossli gruntlarni zichlash «rad etish» gacha davom etishi mumkin. Zichlash jarayonidan keyingi tashlab yuborish vaqtida, har bir tashlangan zichlash ta'sirida grunt bir xil dumalansa, bu xil zichlanayotgan gruntning rad etishi deb qabul qilinadi. Rad etish qiymati $S_r \geq 0,7$ olti metrgacha:

- a) qumlar uchun 0,5 – 1,0 sm,
- b) loyli gruntlar uchun 1,0 – 2,0 sm.

Zilzilaviy hududlarda yog'och qoziq yordamida zichlash. Bu usul lyossimon gruntlarni zichlashda ishlatiladi. (1.1 rasm). $D=22\div24$ sm. qoziq qoqish natijasida yon devorlari zichlashadi. Keyin qoziq chiqarib olinadi. Bo'sh qolgan chuqur qattiq grunt bilan to'ldiriladi. Suv yordamida titratib zichlash Burg'ga (skvajina) hamma tomonlari teshilgan quvur tushuriladi. Namlik oshgan sari grunt yumshaydi, bog'lanishlar kamayadi va titratgich tushirishga imkoniyat yaratiladi. Keyin grunt yangi mustahkam zichlikka ega bo'ladi. Bu usul qumli gruntlarni zichlashda ishlatiladi. Lyossli gruntlarni qotirish usullari –bu qurilish maqsadida ishlatiladigan lyossli gruntning qurilish xossalari tabiiy yotqizilgan holda har xil fizik-kimyoviy usullar bilan yaxshilash demakdir. Lyossli gruntlarni yaxshilashdan maqsad ularni qotirish,

mustahkamlash, suv o'tkazuvchanligini va siqilishni kamaytirish va namlik ta'sirida ularning strukturasini bo'shashiga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Zilzilaviy hududlarda lyossli gruntlarni sementlash uchun quyma in'ektorlar yoki burg'ilangan quduqlarga tushiriladigan in'ektor-tamponlar qo'llaniladi. (1.1 rasm). In'ektorlar diametri 25...100 mm bo'lgan, 0,5...1,5 m uzunlikdagi perforatsiyalangan bo'g'in bilan jihozlangan quvurlardir. In'ektor gruntga yoki quduqqa kiritilganidan so'ng quvurga bosim ostida toza suv yuboriladi va quduq yuviladi. So'ngra quvur orqali sement qorishmasi bosim ostida yuboriladi va u gruntga kirib, uni sementlaydi. O'pqonlar va yoriqsimon qoyalarini sementlaganda suv va sement nisbati uncha katta bo'lмаган sement qorishmasi qo'llaniladi. Bundan tashqari, qorishmaga ko'pincha qum qo'shiladi.



1.1.rasm. Lyosimon gruntlar

Lyossli gruntni zichlash radiusi, qorishmani yuborish bosimi, sement qorishma sarfi va sementlangan lyossli gruntlarning zichligi sinov ishlari jarayonida belgilanadi. Sementlash usuli poydevorlar konstruksiyasini kuchaytirish uchun ham qo'llaniladi. Buning uchun poydevorlar tanasida shpurlar burg'ilanadi va ular orqali poydevor materiali yoki devoriga kuchli bosim ostida sement qorishmasi yuboriladi. Lyossli gruntlarni silikatlash Filtratsiya koeffitsienti 0,5-80 m/sut bo'lgan qumlarni, fidtratsiya koeffitsienti 0,2-2,0 m/sut bo'lgan o'ta cho'kuvchan serg'ovak lyossli gruntlarni va ayrim turdag'i to'kma gruntlarni kimyoviy mahkamlash uchun qo'llaniladi. (1.2.rasm)



1.2.rasm. Lyossimon gruntli zaminlarini zichlanishi.

Zilzilaviy hududlarda bu usulning mohiyati shundan iboratki, gruntlarga natriy silikat eritmasi (suyuq shisha) bosim ostida yuboriladi. Bu eritma bilan g'ovakli muhit to'ldiriladi va qotirgich mavjud bo'lgan holda vaqt o'tishi bilan qotuvchi gel hosil bo'ladi. Grunt massivini yaxlit mustahkamlash uchun in'ektorlar shaxmat kataklari tartibida joylashtiriladi. Gillash va bitumlash Gillash qumlarning suv o'tkazuvchanligini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Gillash texnologiyasi qumli gruntu botirilgan in'ektorlar orqali tarkibida montmorillonit 60% dan kam bo'lмаган betonitli gilning suvli suspensiyasini bosim ostida yuborishdan iborat. Zilzilaviy hududlarda gilli zarralar cho'kib, qum g'ovaklarini to'ldiradi va natijada uning suv o'tkazuvchanligi bir necha baravar pasayadi. Bitumlash asosan yoriqsimon qoyatosh jinslarning suv o'tkazuvchanligini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Bu usul quduqlar orqali yoriqsimon massivga eritilgan bitum yoki maxsus bitumli emulsiyalarni bosim ostida yuborishdan iborat. Bunda tirkishlar va bo'shliqlarning to'lishi yuz beradi va massiv deyarli suv o'tmaydigan tus oladi. Lyossli gruntlarni elektrokimyoviy usulda mustahkamlash Bu usul suvgaga to'yingan changsimon-loyli gruntlarni mustahkamlash uchun elektroosmos bilan uyg'unlikda qo'llaniladi. Bunda anodlar orqali gruntu ko'p valentli metallar tuzlarining suvdari eritmalarini uzatiladi. Bu eritmalar loyli grunt bilan birikib, gilli zarralarni koagulyatsiyalaydi. Temir va aluminiy tuzlari gellari bilan o'zarо sementlangan gilli agregatlar yaratiladi. Bunda gruntlarning mustahkamligi sezilarli darajada ortadi, ularning ko'pchuvchanlik qobiliyati ancha pasayadi.

Elektrokimyoviy mustahkamlashda tok kuchlanishi 80...100 V, tok zichligi 5...7 A/m² , energiya sarfi mustahkamlanayotgan gruntuning 1 m³ ga 60...100 kVt·soatni tashkil etadi. Gruntlarni sun'iy qotirish bo'yicha ishlagan sobiq ittifoq olimlaridan: prof. B.I.Dalmatov, P.L.Ivanov, V.A.Florin, prof. Abe-lev M.Yu., B.A.Rjanitsin, X.A.Asqarov, A.I.Xoliqulovlarning xizmatlari katta. Gruntlarni termik mustahkamlash usuli namligi past bo'lgan gazo'tkazuvchan changsimon-loyili gruntlarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Bu usuldan serg'ovak lyoss gruntlarning o'ta

cho'kuvchanlik xossalari bartaraf etish uchun ayniqsa ko'p foydalaniladi. Mustahkamlanuvchi qatlam chuqurligi 20 m ga yetadi. Termik ishlov berish usulining mohiyati shundan iboratki, grunt orqali bir necha sutka mobaynida qizdirilgan havo yoki qizdirilgan gazlar o'tkaziladi.

Zilzilaviy hududlarda sementlash lyossli gruntga sementning suvdagi qorishmasi in'ektor yordamida yuboriladi. Gruntga yuborilgan qorishma asta-sekin qotib, lyossli grunt bilan birgalikda suvda yuvilib ketmaydigan va filtratsiya qobiliyati kamaygan qattiq zaminga aylanadi. Sementlash o'rtacha va yirik zarrali donli qumlar uchun qo'llanilganda yaxshi samara beradi. Sementlash, ayniqsa siniq toshli gruntuvalar va yorilgan qoya massalarini qotirishda juda qo'l keladi.

Qurilish maydonining zilzilaga mustahkamligi inshoot zaminning zilzilaga mustahkamligini aniqlashda, to'lqinlar ta'siri natijasida hosil bo'lувчи seysmik tebranishning yuqori qiymati asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun seysmik tezlanishning yuqori qiymatini to'g'ri va aniq belgilash juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu maqsadda aholi yashaydigan yirik punktlarda, hamda katta ahamiyatga ega bo'lgan sanoat va gidrotexnika qurilish ob'ektlarida maxsus geologik va hidrogeologik qidiruv ishlari olib boriladi. Bu qidiruv ishlari natijasida kuzatilgan rayon uchun yirik mashtabli xarita tuzilib, unda turli gruntuvalar o'ziga xos ballar bilan ifodalanadi. Seysmik xaritalar umumiy asosga tayanib tuziladi. Bunda yuqoridagilarni hisobga olib gruntuvalarning seysmik xususiyatlari asos qilib olinadi.

Zilzilaviy hududlarda zilzila ta'sirida lyossli gruntuvalarning mustahkamlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi Zilzila yuz bergan vaqtida grunt qatlamlari bo'ylab turlicha bo'ylama, ko'ndalang va yer yuzasi bo'yicha tarqaluvchi to'lqinlar hosil bo'lib, ularning lyossli grunt zarrachalariga va ular orasidagi suv va gazlarga ta'siri natijasida siqilish-cho'zilish va siljish kuchlanishlari vujudga keladi. Bu vaqtida lyossli grunt egiluvchan deformatsiya ta'sirida bo'lishi bilan birga, ba'zi hollarda uning strukturasi buzilib zarrachalar o'zaro zichlanishlari ham mumkin. H.Z. Rasulov ishlab chiqqan «Namlangan gruntuvalar strukturasining zilzila ta'sirida buzilishi» haqidagi nazariyaga asosan o'ta namlangan zarrachalari o'zaro bog'langan gruntuvalarga zilzila ta'sir etganda, bu ta'sir birinchi navbatda grunt zarrachalarini bir-biriga bog'lab turuvchi kuch orqali qabul qilinadi. Qachonki bu kuch siljituvcchi seysmik kuchlanishlari ta'sirida yengilmas ekan grunt kvazi qattiq jism holida tebranishda davom etadi va grunt zarrachalari orasidagi bog'lanishlar faqat egiluvchan xususiyatga ega bo'ladilar. Bundan esa zarrachalari o'zaro bog'langan gruntuvalar strukturasining seysmik kuchlanish ta'sirida buzilish tabiatini tebranish davrida gruntuvalning siljishga qarshi mustahkamlik ko'rsatkichlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi degan xulosa kelib chiqadi. Gruntuvalarning siljishga qarshi ko'rsatkichlari, ularning siljituvcchi tashqi kuchlarga nisbatan bo'lgan asosiy mustahkamligi bo'lib, ular har qanday bosimga va grunt zarrachalarining o'zaro bog'lanish holatlariga qarab o'zgaruvchan bo'ladilar.

Zilzilaviy hududlarda turli gruntlar ustida olib borilgan ko‘plab tekshiruvlar natijasidan shu narsa kelib chiqadiki, namlangan va o‘ta namlangan gruntlar siljishga qarshi mustahkamlik kuchini ko‘pincha yumshoq plastik holatidagi bog‘lanishlar hal qiladi. Shuning uchun siljituvchi seysmik kuchlanishlar ta’sirida gruntning qarshiligini o‘rganishda ko‘pincha yumshoq plastik bog‘lanishga ko‘proq ahamiyat berishga to‘g‘ri keladi. Yumshoq plastik bog‘lanishlarning asosiy kuchi lyossli grunt zarrachalari sirtini o‘rab turuvchi suv qatlamlarining o‘zaro tortish kuchiga bog‘liqdir. Zaminlarning zilzilabardoshligini oshirishga qaratilgan tadbirlar Zaminlarni zilzilaga nisbatan mustahkamligini oshirishga qaratilgan tadbirlar turlichadir. Ularning ba’zilari zamin gruntlarining zilzilaga qarshi mustahkamligini oshirishga yo‘nalgan bo‘lsa (gruntning mustahkamlik ko‘rsatkichlari, ya’ni φ va C qiymatlarini sun’iy yo‘llar bilan ko‘paytirish orqali), boshqalari esa inshootning zilzilaga bardoshligini oshirishga (inshootdan uzatilayotgan tik yo‘nalgan kuchlanishlarni va poydevor chuqurligini oshirish yo‘li bilan) qaratilgan.

Zilzilaviy hududlarda inshoot atrofini qo‘sishimcha yuklash maqsadida, ko‘pincha shu inshootning atrofiga joylashtiriladigan ayrim binolar yoki bu maqsadda yirik toshlar va zichlashtirilgan lyossli gruntlar ham foya berishi mumkin. Bo‘sh va g‘ovak gruntlar qatlamini kamaytiruvchi tadbirlarga binokorlik tajribasida keng qo‘llaniladigan poydevor chuqurligini oshirish yoki qoziqli poydevor qo‘llash va hokazolar kiradi. Shuni aytish kerakki, zaminlarning zilzilabardoshligini oshirishning yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlari binokorlik tajribasida foydalaniladigan tadbirlarning ayrimlari bo‘lib, ularning soni har bir alohida sharoitga mos ravishda oshib borishi mumkin.

Xulosasi/tavsiyalar. Zilzilaviy hududlarda lyossli zaminni zichlash usullarini bir necha turlarini korib chiqdik. Mashina va uskunalar zaminining tebranishi dinamik kuchlar poydevor orqali zaminga uzatiladi. Natijada mashina poydevor bilan birgalikda tebranma harakat qiladi. Tebranishning so‘nishi gruntning turiga bog‘liq bo‘ladi. Quruq lyossli gruntlarda so‘nish juda tez bo‘ladi. Suv bilan to‘yingan lyossli gruntlarda sekin so‘nadi. Hozirgi zamonda dinamik ta’sirni kamaytirgichlar ishlab chiqarish, maydonni quritish va ustun qoziqli poydevorlar qo‘llash ham yaxshi natijalar beradi. Barcha tarbirlar “Qurilish me’yorlari va qoidalari” 2.02.05-98 talablariga asosan olib boriladi. Mashina va uskunalardan tarqaluvchi tebranma harakat bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlar asosida yuzaga keladi. Ma’lumki, bo‘ylama yoki siquvchi to‘lqinlar lyossli grunt zarralarini harakat yo‘nalishi bo‘ylab tebranishga olib keladi. Ko‘ndalang yoki siljituvchi to‘lqinlar esa lyossli grunt zarralarini yo‘nalishga tik ravishda harakatga keltiradi. Ulardan tashqari, siquvchi to‘lqinlar esa yer yuzasidagi qatlam yo‘nalishida harakat qiladi.

Lyossli grunt sathidan boshlangan tebranish chuqurlik bo‘ylab tarqalib so‘nib boradi. harakatning so‘nishi fanda tebranishning dekrementi deb ataladi. Masalan,

quruq gruntlardagi tebranish tez so‘nadi. Aksincha suvgaga to‘yingan loyli gruntlarda esa tebranishning so‘nishi uzoqroq davom etib, chuqurroq masofaga tarqalishi kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Khakimov, G. A., and M. A. Muminov. "CONSTRUCTION OF BUILDINGS ON WEAK MOIST CLAY SOILS IN SEISMICALLY ACTIVE ZONES OF UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 755-760
2. Khakimov G. A., Samiyeva Sh. Kh., Muminov A.A., Berdimurodov A.E., & Muminov J.A. (2023). COMPACTION OF LOESS BASES OF BUILDINGS AND STRUCTURES, AS WELL AS BULK SOILS AROUND THE FOUNDATION USING VIBRATORY ROLLERS IN SEISMIC AREAS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 306–311. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5184>
3. Khakimov, G., Abduraimova , K. ., Muminov , A., Berdimurodov, A., & Sobirova, Z. (2023). DETERMINATION OF THE CALCULATED (PERMISSIBLE) PRESSURE ON THE LOESS FOUNDATION OF BUILDINGS AND STRUCTURES IN SEISMIC CONDITIONS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(6), 61–66. Retrieved from <https://internationalbulletins.com/intjour/index.php/ibet/article/view/764>
4. Khakimov Gayrat, G., Abduraimova, K. ., Muminov , A., Berdimurodov , A., & Sobirova, Z. (2023). CONSTRUCTION OF BUILDINGS AND STRUCTURES IN DIFFICULT SOIL CONDITIONS AND SEISMIC REGIONS OF THE REPUBLICS OF CENTRAL ASIA. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 315–319. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/1875>
5. Khakimov, Gayrat Akramovich. "CHANGES IN PLASTIC ZONES IN LESS BASES UNDER SEISMIC VIBRATIONS." Journal of Nev Zealand, 742-747.
6. Khakimov, Gayrat, et al. "INFLUENCE OF HUMIDITY ON CHANGES IN THE STRENGTH CHARACTERISTICS OF LESS SOILS UNDER SEISMIC INFLUENCE." International Bulletin of Engineering and Technology 3.6 (2023): 274-281.
7. Khakimov G. A., Samiyeva Sh.Kh., Muminov A. A., Berdimurodov A. E., & Muminov J.A. (2023). EXPERIENCE OF COMPACTION OF THE BASES OF LARGE BUILDINGS AND CORES OF EARTHEN DAMS OF WATERWORKS IN SEISMIC AREAS WITH OPTIMAL HUMIDITY OF LOESS SOIL. Academia Science Repository, 4(04), 365–372. Retrieved from <https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/206>
8. Khakimov, Gayrat. "FORMATION AND DEVELOPMENT OF SEISMOPROSADOCHNOY DEFORMATION AND UVLAJNYONNYKH LYOSSOVYKH OSNOVANIYAX ZDANII SOORUJENI." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.6 (2023): 1339-1345
9. Khakimov, Gayrat. "CONSTRUCTION OF BUILDINGS AND STRUCTURES IN DIFFICULT GROUND CONDITIONS AND SEISMIC AREAS." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.2 (2023): 203-209

10. Хакимов, Г. А., et al. "РАЗВИТИЕ ПЛАСТИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ ЛЁССОВЫХ ГРУНТОВ В ПОДФУНДАМЕНТНОЙ ЧАСТИ ОСНОВАНИЯ ПРИ СЕЙСМИЧЕСКИХ ВОЗДЕЙСТВИЯХ." GOLDEN BRAIN 1.1 (2023): 130-135.
11. Gayrat Khakimov, and Khadicha Abduraimova. "INCREASING DAMAGE TO STABILITY OF BUILDINGS ERECTED ON LESS SOILS IN SEISMIC AREAS, DEPENDING ON SOME FACTORS." International Bulletin of Engineering and Technology 3.9 (2023): 61-69.
12. Бердимуродов, А., & Туляганов, З. (2023). Zilzilaga chidamli, energiya tejaydigan kam qavatli qurilish uchun konseptual yondoshuvlar. Сейсмическая безопасность зданий и сооружений, 1(1), 42–48. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/seismic-safety-buildings/article/view/27529>
13. Бердимуродов, А., & Собирова, З. (2023). Zilzilaga chidamli binolarning konstruktiv elementlari. Сейсмическая безопасность зданий и сооружений, 1(1), 185–189. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/seismic-safety-buildings/article/view/27589>
14. Khakimov, G. A. (2020). Changes in the Strength Characteristics of Glinistx Soils under the Influence of Dynamic Forces International Journal of Engineering and Advanced Technology, IJEAT. Exploring innovation, 639-643.
15. Khakimov, G., & Abduraimova, K. (2023). RESULTS OF EXPERIMENTAL RESEARCH ON STUDYING THE DEPENDENCE OF THE CRITICAL ACCELERATION OF GROUND VIBRATIONS FROM VARIOUS FACTORS UNDER CONVERSATION CONDITIONS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 330-337.
16. Akramovich, K. G., Xushvaqtovich, B. S., Abduvakhobjonovich, R. S., Sunnatovich, T. Z., & Zarofatkhan, A. (2024). Problems of Design and Construction of Buildings and Structures in Seismic Areas, on Weak Moistened Clay and Subsidence Loess Bases. International Journal of Scientific Trends, 3(2), 19-26.
17. Eshnazarovich, B. A. ., & Abduxalilovich, M. A. . (2024). ZILZILA KUCHITA'SIRIGA BARDOSSH BERADIGAN BINOLARNING KONSTRUKTIV YECHIMLARI. ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 3(3), 11–16. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/10037>
18. Хакимов, Г. (2023). Повышение сейсмической устойчивости увлажнённых лёссовых оснований. Сейсмическая безопасность зданий и сооружений, 1(1), 170-178.
19. Хакимов, Г., & Байматов, Ш. (2023). Биноларни лёссимон заминларда лойиҳалашда сейсмик кучлар таъсирида пайдо бўладиган деформацияларни ҳисобга олиш. Сейсмическая безопасность зданий и сооружений, 1(1), 161-165.
20. Akramovich, K. G., Xushvaqtovich, B. S., Abduvakhobjonovich, R. S., Sunnatovich, T. Z., & Zarofatkhan, A. (2024). Investigation of the Patterns of Changes in the Structural Strength of Moistened Loess Soils Under Dynamic (Seismic) Influences. International Journal of Scientific Trends, 3(2), 1-9.